ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergashev Sherali Erali o‘g‘li

Buxoro davlat texnika universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari tizimli va qiyosiy tahlil qilingan. Mintaqaviy boshqaruvning tizimli murakkablik, ko‘p darajalik, inersionlik, mahalliy kontekst va tashqi omillar ta’siri kabi beshta asosiy xususiyati zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida aniqlangan va chuqur tavsiflab berilgan. Xalqaro tajriba — Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Rossiya Federatsiyasi misolida — mintaqaviy boshqaruvning turli modellari tahlil etilgan. O‘zbekiston mintaqalarining spesifik xarakteristikalari, tarixiy-madaniy stratifikatsiyasi, gidrografik determinizmi va agrar-industrial dualizmidan kelib chiquvchi differensiatsiyalashtirilgan boshqaruv zarurati asoslab berilgan. Akademik S.S.G‘ulomov metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan mintaqaviy tipologiya va steykxolderlar tahlili taqdim etilgan. Zamonaviy raqamli boshqaruv paradigmasi hamda O‘zbekiston uchun mintaqaviy avtonomiyani kengaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy boshqaruv, tizimli murakkablik, ko‘p darajali boshqaruv, inersionlik, mahalliy kontekst, O‘zbekiston mintaqalari, mintaqaviy tipologiya, raqamli transformatsiya, steykxolderlar tahlili, ijtimoiy kapital.

Аннотация. В данной статье проведён систематический и сравнительный анализ специфических особенностей управления региональным социально-экономическим развитием. Выявлены и подробно охарактеризованы пять основных особенностей регионального управления: системная сложность, многоуровневость, инерционность, важность локального контекста и сильное влияние внешних факторов. Проанализирован международный опыт регионального управления на примере Европейского Союза, Китая и Российской Федерации. Обоснована необходимость дифференцированного подхода к управлению регионами Узбекистана с учётом их специфических характеристик. Разработаны практические рекомендации по расширению региональной автономии и цифровой трансформации системы управления.

Ключевые слова: региональное управление, системная сложность, многоуровневое управление, инерционность, локальный контекст, регионы Узбекистана, цифровая трансформация, стейкхолдеры, социальный капитал, региональная типология.

Abstract. This article provides a systematic and comparative analysis of the specific features of managing regional socio-economic development. Five core characteristics of regional governance are identified and comprehensively

ISSN 3030-3907

described: systemic complexity, multi-level structure, inertia, significance of local context, and strong external factor influence. International experience in regional governance is examined through the lens of the European Union, China, and the Russian Federation. The necessity of a differentiated approach to managing Uzbekistan's regions is substantiated in light of their historical-cultural stratification, hydrographic determinism, and agrarian-industrial dualism. Regional typology based on Professor S.S.Gulomov's methodology and a stakeholder analysis are presented. The modern digital governance paradigm and practical recommendations for expanding regional autonomy and digital transformation of the governance system in Uzbekistan are elaborated.

Keywords: regional governance, systemic complexity, multi-level governance, inertia, local context, regions of Uzbekistan, digital transformation, stakeholders, social capital, regional typology.

KIRISH

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni tizimli tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy fanning muhim vazifasi hisoblanadi. Mintaqaviy boshqaruvning spesifik xarakteri umumiy boshqaruv nazariyasi qoidalarining mintaqaviy kontekstda transformatsiyalanishi bilan izohlanadi. Xarold Richardson (1973) ta'kidlaganidek, mintaqaviy boshqaruv makoniy geterogenlik, vaqtiy asinxronlik va institutsional polimorfizm xususiyatlari bilan xarakterlanib, bu uni milliy darajadagi boshqaruvdan tubdan farqlantiradi.

O‘zbekistonda 2020–2024 yillar davomida yalpi ichki mahsulot 606,0 trln so‘mdan 1454,6 trln so‘mga yetib, 2,4 barobar o‘sgan. Buxoro viloyatida YaHM hajmi 2,03 marta oshgan, asosiy kapitalga investitsiyalar 4,24 marta kengaygan [O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024]. Ushbu miqdoriy ko‘rsatkichlar mintaqaviy rivojlanishdagi ijobiy dinamikani ko‘rsatishi bilan birga, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning hali ham sezilarli darajada saqlanib qolayotganini ham tasdiqlamoqda. Shu sababli, mintaqaviy boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularni tizimlashtirish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini tizimli tahlil qilish, O‘zbekiston mintaqalarining spesifik xarakteristikalarini aniqlash va zamonaviy mintaqaviy boshqaruv paradigmasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va institutsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

ISSN 3030-3907

Mintaqaviy boshqaruv xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh — umumiy boshqaruv nazariyasi va uning mintaqaviy kontekstga tatbiqi: O.V.Kuznesova (2013), A.I.Tatarkin (2016), A.G.Granberg (2000) asarlari. Ikkinchi guruh — ko‘p darajali boshqaruv nazariyasi va mintaqaviy siyosat: L.Xuge va G.Marks (2003), Y.Baxtler (2010), R.Kapello (2015) tadqiqotlari. Uchinchi guruh — mahalliy kontekst va ijtimoiy kapital: R.Putnam (1993), M.Storper (1997) ishlari. O‘zbekiston mintaqaviy xususiyatlariga oid tadqiqotlar: I.I.Iskandarov (2017), S.S.G‘ulomov (2019) asarlari alohida o‘rin egallaydi.

Tadqiqotda qo‘llangan metodologiya quyidagi asosiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi: (1) tizimli tahlil — mintaqaviy boshqaruvni yaxlit, o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan tizim sifatida o‘rganish; (2) qiyosiy tahlil — xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini baholash; (3) institutsional tahlil — rasmiy va norasmiy institutlarning mintaqaviy rivojlanishdagi rolini aniqlash; (4) statistik tahlil — O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha 2015–2024 yillar ma’lumotlarini qayta ishlash. Manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi) hisobotlari va ilmiy jurnallar maqolalari qo‘llanilgan.

Birinchi xususiyat — mintaqaning tizimli murakkabligi. O.V.Kuznesova (2013) ta’kidlaganidek, mintaqa iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-resurs, infratuzilma, institutsional va innovatsion podsistemalarni o‘z ichiga oladi. A.I.Tatarkin (2016) mintaqaviy tizimning emerjent xususiyatlarini alohida ta’kidlaydi: bu xossalar tizim elementlarining yig‘indisida mavjud bo‘lmay, faqat ularning o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, birgina infratuzilma yoki birgina ta’lim darajasining yaxshilanishi sinergetik natija bermasligi mumkin, ammo ularning birgalikdagi taraqqiyoti mintaqada sifat jihatdan yangi iqtisodiy o‘sish traektoriyasini shakllantiradi.


Mintaqaviy tizimning murakkabligini Buxoro viloyati misolida ko‘rish mumkin: viloyatda neft-kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, turizm va ta’lim tarmoqlari bir-biri bilan murakkab aloqalar tizimida bog‘liq. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi umumiy infratuzilma, suv resurslari va inson kapitali manbalari uchun raqobatlashadi. Shu sababli, mintaqaviy boshqaruvda kompleks, tizimli yondashuv qo‘llash zarur bo‘lib, u alohida tarmoqlar manfaatlarini emas, balki mintaqaning yaxlit rivojlanish traektoriyasini inobatga olishi lozim.

Ikkinchi xususiyat — boshqaruv sub’ektlarining ko‘p darajaliligi. Y.Baxtler (2010) mintaqaviy siyosatda xalqaro (BMT, Jahon banki, YeI), milliy (markaziy hukumat), mintaqaviy (viloyat hokimiyati) va mahalliy (tuman, shahar

ISSN 3030-3907

hokimiyatlari) darajalarni ajratadi. Har bir daraja o‘z funksiyalari, vakolatlari va moliyaviy resurslariga ega. Liesbet Xuge va Gari Marks (2003) ko‘p darajali boshqaruvning ikki tipini ajratadi: birinchi tip — an’anaviy federalizm (aniq chegaralangan vakolatlar, mustaqil moliyalashtirish), ikkinchi tip — funksional boshqaruv (moslashuvchan chegaralar, vazifaga qarab ierarxiya). O‘zbekiston uchrashib turgan markazlashtirilgan-dezmarkazlashtirilgan boshqaruv modeli ushbu tipologiya doirasida aralash xususiyatga ega.


2-rasm. Ko'p darajali mintaqaviy boshqaruv modeli (O'zbekiston)



Manba: Xuge va Marks (2003); O'zbekiston qonunchilik asosida muallif tuzdi

Uchinchi xususiyat — mintaqaviy jarayonlarning inersionligi. Jan Budvil (1966) ko‘rsatganidek, mintaqaviy iqtisodiy tuzilma o‘ta sekin o‘zgaradi: infratuzilma inersiyasi 30–50 yil, institutsional inersiya 20–30 yil, demografik inersiya esa 15–25 yil davomida namoyon bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda qabul qilingan mintaqaviy siyosat qarorlari o‘zining to‘liq samarasini bir necha o‘n yildan keyingina beradi. Roberta Kapello (2015) mintaqaviy inersiyani yengish uchun “aqlli ixtisoslashuv” (smart specialization) strategiyasini taklif etadi: har bir mintaqa o‘zining tarixiy shakllangan salohiyati va raqobatdosh ustunliklarini aniqlashi, shu asosda investitsiya va innovatsiya resurslarini yo‘naltirishi kerak.

ISSN 3030-3907



To‘rtinchi xususiyat — mahalliy kontekstning muhimligi. Robert Putnam (1993) Italiya mintaqalarini 20 yil davomida tadqiq qilib, ijtimoiy kapital — o‘zaro ishonch, fuqarolik normalari va jamoaviy tarmoqlar — mintaqaviy rivojlanishning hal qiluvchi omili ekanligini empirik asoslab berdi. Shimoliy va janubiy Italiya o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar asosan ijtimoiy kapital darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Michael Storper (1997) mintaqaviy dunyo (regional worlds) konsepsiyasida mahalliy institutlar, bilimlar va an’analarning birgalikda “mintaqaviy ustunlik” yaratishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston mintaqalarida ham bu xususiyat yaqqol namoyon bo‘ladi: Samarqand va Buxoroning tarixiy hunarmandchilik an’analari, Farg‘ona vodiysining to‘qimachilik klasterlarida to‘plangan bilim va ko‘nikmalar mahalliy kontekstning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Beshinchi xususiyat — tashqi omillarning kuchli ta’siri. Globallashuv sharoitida mintaqalar ochiq tizimlar sifatida faoliyat yuritib, xalqaro tovar, kapital, texnologiya va inson resurslari oqimlariga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Michael Storper (1997) mintaqaviy dunyo konsepsiyasida global iqtisodiyotda mintaqalarning o‘zaro raqobat qilishini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekiston mintaqalari uchun Xitoy investitsiyalari, Rossiya bozori (mehnat migrantlari pul o‘tkazmalari), Yevropa texnologiyalari va O‘rta Osiyo mintaqaviy integratsiyasi kabi tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2023 yilda O‘zbekiston YaIMga nisbatan tashqi savdo 60% ni tashkil etganligi ushbu bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatadi.


O‘zbekiston mintaqalarining geterogenligi bir qator parametrlar bo‘yicha keskin namoyon bo‘ladi. Demografik zichlik jihatidan: Farg‘ona vodiysida 500 kishi/km² dan Navoiy viloyatida 9 kishi/km² gacha; urbanizatsiya darajasi bo‘yicha: Toshkentda 80% dan Surxondaryoda 31% gacha. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha: Toshkent shahri butun mamlakat YaIMining 30% dan ortig‘ini ishlab chiqaradi, Xorazm viloyati esa 2% atrofida qolmoqda. Bu tafovutlar mintaqaviy

ISSN 3030-3907

boshqaruvga bir xil, markazlashtirilgan yondashuv samarasizligini ko‘rsatadi va differensiatsiyalashtirilgan siyosatning zarurligini tasdiqlaydi.

Professor I.I.Iskandarov (2017) O‘zbekiston mintaqaviy tizimining beshta spesifik xususiyatini ajratadi. Birinchisi — tarixiy-madaniy stratifikatsiya: Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar ming yillik madaniy qadriyatlar va hunarmandchilik an’analariga ega bo‘lib, bu ulardagi iqtisodiy faoliyat xarakterini belgilaydi. Ikkinchisi — gidrografik determinizm: mamlakatning iqtisodiy xaritasi asosan Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo‘ylab shakllanadi; suv ta’minoti mintaqaviy rivojlanishning hal qiluvchi cheklovi hisoblanadi. Uchinchisi — etnokonfessional gomogenlik: bu ijtimoiy barqarorlik va boshqaruv samaradorligi uchun qulay zamin yaratadi. To‘rtinchisi — administrativ sentralizm an’anasi: tarixan shakllangan markaziy boshqaruv madaniyati mahalliy tashabbuskorlikni cheklashi mumkin. Beshinchisi — agrar-industrial dualizm: mamlakatning aksariyat mintaqalarida zamonaviy sanoat va an’anaviy qishloq xo‘jaligi yonma-yon mavjud.


Akademik S.S.G‘ulomov (2019) O‘zbekiston mintaqalarining kompleks tipologiyasini ishlab chiqdi. Uning metodologiyasi klaster tahlili, faktorli tahlil va diskriminant tahlil usullarining kombinatsiyasiga asoslanib, 47 ta indikator qo‘llanilgan. Natijada O‘zbekiston mintaqalari yetti tipga ajratilgan: (1) metropoliten (Toshkent shahri) — yuqori urbanizatsiya, xizmat ko‘rsatish sektori ustunligi; (2) industrial (Navoiy, Angren) — yirik sanoat korxonalari; (3) agroindustrial (Andijon, Farg‘ona) — sanoat va qishloq xo‘jaligi uyg‘unligi; (4) agrar (Surxondaryo, Qashqadaryo) — qishloq xo‘jaligi ustunligi; (5) turistik-rekreatsion (Samarqand, Buxoro) — madaniy-tarixiy meros; (6) transchegara (Farg‘ona, Toshkent viloyati) — chegara savdosi; (7) resurs-xomashyo (Qoraqalpog‘iston) — tabiiy resurslar.



ISSN 3030-3907

Mintaqaviy boshqaruvda steykxolderlar tahlili muhim metodologik vosita bo‘lib, u turli manfaatdor tomonlarning mintaqaviy rivojlanish jarayonlaridagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Asosiy steykxolderlar quyidagilardan iborat: mahalliy hokimiyat organlari (resurs va vakolat egasi), yirik sanoat korxonalari (investitsiya va ish o‘rni), kichik va o‘rta biznes (iqtisodiy faollik va innovatsiyalar), aholi (asosiy benefitsiar va ijtimoiy nazorat subyekti), nodavlat tashkilotlar (jamoa manfaatlarini ifodalovchi), oliy ta’lim va ilmiy muassasalar (inson kapitalini shakllantiruvchi), xalqaro tashkilotlar (moliyaviy va texnik yordam) va OAV (axborot muhiti). Har bir steykxolderning manfaatlari, resurslari va ta’sir darajasi o‘ziga xos bo‘lib, ular o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik mintaqaviy rivojlanishning asosi hisoblanadi.

5-rasm. Mintaqaviy boshqaruvda steykxolderlar matritsasi



Manba: Freeman R. (1984) metodologiyasi asosida muallif tuzdi

Yevropa Ittifoqining koheziya siyosati (Cohesion Policy) mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning eng samarali xalqaro modeli sifatida e’tirof etilmoqda. 2021–2027 yillar davomida YeI 392 mlrd evro hajmida koheziya fondlari ajratgan. Ushbu siyosatning asosiy tamoyillari: sheriklik (barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish), additionallik (YeI mablag‘lari milliy mablag‘larni o‘rnini egallamasligi), dasturlash (ko‘p yillik strategik rejalash) va kontsentratsiya (mablag‘larni ustuvor yo‘nalishlarga jamlash). Bu tamoyillar O‘zbekiston mintaqaviy siyosatini takomillashtirish uchun metodologik asos bo‘lishi mumkin.

Xitoyning mintaqaviy rivojlanish tajribasi ham alohida e’tiborga loyiq. “G‘arb g‘arb” strategiyasi (2000) doirasida Xitoyning g‘arbiy viloyatlari —

ISSN 3030-3907

Sintszyuan, Tibet, Gansu, Yunnan — uchun maxsus iqtisodiy imtiyozlar, infratuzilma investitsiyalari va kadrlar tayyorlash dasturlari joriy etildi. Natijada 2000–2020 yillar davomida ushbu mintaqalar YaIMi o‘rtacha 9% ga o‘sib, sharqiy qirg‘oq viloyatlari bilan tafovut sezilarli darajada qisqardi. Xitoy tajribasining asosiy darsi: maqsadli infratuzilma investitsiyalari va kadrlar salohiyatini oshirish inert hududlarni ham jadal rivojlanish traektoriyasiga o‘tkazishi mumkin.

Zamonaviy mintaqaviy boshqaruv paradigmasi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, SMART maqsadlar tamoyili (Specific — aniq, Measurable — o‘lchovli, Achievable — erishish mumkin, Relevant — dolzarb, Time-bound — muddatli): mintaqaviy strategik rejalashtirishda o‘lchovli maqsad ko‘rsatkichlari belgilanishi lozim. Ikkinchidan, integral yondashuv: iqtisodiy o‘sish bilan birga ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlik ham ta’minlanishi kerak. Uchinchidan, ishtirokchilik mexanizmlari: aholi va fuqarolik jamiyatining rejalash va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilishi. To‘rtinchidan, adaptiv boshqaruv: noaniqlik va o‘zgaruvchan muhitda moslashuvchan rejalashtirish va tezkor monitoring tizimi.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mintaqaviy boshqaruvni raqamlashtirish bir necha asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi belgilangan: E-hukumat xizmatlari orqali byurokratik to‘siqlarni yo‘q qilish, IoT sensorlar yordamida shahar va qishloq infratuzilmasini smart boshqaruv tizimiga o‘tkazish, blokcheyn texnologiyasi asosida yer kadastr va mulk reestrlarini yuritish, sun’iy intellekt tizimlari yordamida mintaqaviy prognozlash va resurslarni optimal taqsimlash. 2024 yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish 70% ga yetib, bu ko‘rsatkich 2019 yilga nisbatan 4 baravar oshgan.

O‘zbekistonda mintaqaviy rivojlanishni ta’minlashda davlat dasturlari muhim rol o‘ynaydi. 2018–2022 yillarda amalga oshirilgan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari natijasida 2500 km yangi yo‘llar, 450 ta maktab, 380 ta tibbiyot punkti va 180 ta kichik sanoat zonasi barpo etilgan. 2020 yildan joriy etilgan “Mahalla” instituti islohotlari chekka hududlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirdi. 2023 yilda barcha viloyatlarda tashkil etilgan investitsiya agentliklari mahalliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etdi. Ushbu chora-tadbirlar majmui mintaqaviy boshqaruvning yangi paradigmasini — markazdan boshqarishdan hamkorlikdagi boshqaruvga o‘tish jarayonini — aks ettiradi.

Tadqiqot natijasida mintaqaviy boshqaruvning beshta asosiy xususiyati — tizimli murakkablik, ko‘p darajalik, inersionlik, mahalliy kontekstning muhimligi va tashqi omillarning kuchli ta’siri — tizimli tavsiflab berildi. Har bir xususiyat

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha empirik misollar bilan tasdiqlangan. Ushbu xususiyatlarning o‘zaro ta’siri mintaqaviy boshqaruvni o‘ziga xos murakkab boshqaruv ob’ektiga aylantiradi va unga umumiy boshqaruv yondashuvlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish samarasizligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mintaqalarining spesifik xususiyatlari — tarixiy-madaniy stratifikatsiya, gidrografik determinizm, agrar-industrial dualizm va administrativ sentralizm an’anasi — mintaqaviy boshqaruvga differensiatsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. G‘ulomov tipologiyasi bo‘yicha yetti turdagi mintaqalar uchun har xil boshqaruv modellari, moliyalashtirish mexanizmlari va ustuvorliklar belgilanishi zarur.

O‘zbekiston uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchi, mintaqaviy avtonomiyani bosqichma-bosqich kengaytirish — viloyatlarga byudjet mustaqilligini oshirish va mahalliy soliqlar tizimini joriy etish; ikkinchi, moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish — mintaqaviy rivojlanish fondlari, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish; uchinchi, mintaqaviy monitoring tizimini yaratish — Jahon banki “Governance Indicators” metodologiyasi asosida O‘zbekiston mintaqaviy boshqaruv samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish; to‘rtinchi, raqamli infratuzilmani barqaror rivojlantirish — barcha mintaqalarda tezkor internet va raqamli xizmatlar qamrovini 2026 yilga qadar 95% ga yetkazish.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: O‘zbekiston mintaqalarida ijtimoiy kapital darajasini miqdoriy baholash metodikasini ishlab chiqish; mintaqaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalar samaradorligini o‘lchash; smart specialization strategiyasini O‘zbekiston mintaqalari uchun moslashtirilgan shaklda joriy etish imkoniyatlarini o‘rganish. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladigan empirik tadqiqotlar mintaqaviy rivojlanish siyosatini ilmiy asosda shakllantirish uchun zarur zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Richardson X. Regional Growth Theory. – London: Macmillan, 1973.
2. Kuznesova O.V. Ekonomicheskoe razvitie regionov. – M.: LIBROKOM, 2013.
3. Tatarkin A.I. Regionalnaya ekonomika: novye podxodы. – M.: Ekonomika, 2016.
4. Budvil J. Problems of Regional Economic Planning. – Edinburgh, 1966.
5. Putnam R. Making Democracy Work. – Princeton University Press, 1993.
6. Storper M. The Regional World. – Guilford Press, 1997.
7. Granberg A.G. Osnovы regionalnoy ekonomiki. – M.: GU VShE, 2000.

ISSN 3030-3907

8. Iskandarov I.I. Regionы Uzbekistana: otsenka potentsiala. – Toshkent: Fan, 2017.
9. G‘ulomov S.S. O‘zbekiston mintaqalarining tipologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
10. Xuge L., Marks G. Multi-Level Governance and European Integration. – Rowman & Littlefield, 2003.
11. Kapello R. Regional Economics. – Routledge, 2015.
12. Baxtler Y. Regionalpolitik in Deutschland. – Berlin: Springer, 2010.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari, 2024.

ISSN 3030-3907